International

scientific and practical conference

DECEMBER 6
2024

2024



STDF

Science technology& Digital finance

Google Scholar

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

Scientific journal of Science technology & Digital finance

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic

(December 6, 2024)

(Part 2)

Jizzakh-2024

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic – Jizzahk: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, December 6, 2024, 450 pp.

Editors in charge: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O'ralov A.I.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA YOSHLAR UCHUN YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR



Ne’matullayeva Hamida Kamoljon qizi
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali “Iqtisodiyot” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari tadqiq qilingan. Shuningdek, “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, “Taraqqiyot strategiyasining asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari”, “Yoshlarga oid davlat siyosati” tushunchalarning mazmun va mohiyati, yoshlar bilan ishlash va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish, yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish masalalarini yanada takomillashtirish masalalarini o‘rganishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Taraqqiyot strategiyasi, Prezident farmoni, qonuniy manfaatlar, davlat siyosati, iste’dodli yoshlar, tadbirkorlik.

Abstract: This article examines the main directions and goals of the development strategy for 2022-2026, approved by the Decree of the Republic of Uzbekistan No. PF-60 dated January 28, 2024. Also, the content and essence of the concepts “Development strategy of New Uzbekistan”, “Main directions and goals of the development strategy”, “State policy on youth”, work with young people and protecting of their legal interests and aimed at studying issues of comprehensive support and encouragement of talented young people, further improvements of entrepreneurship development among young people.

Key words: Development strategy, Presidential Decree, legitimate interests, state policy, talented young people, entrepreneurship.

O‘zbekiston Respublikasida 2021-yilda Prezidentlik saylovi o‘tkazildi. Shu saylov davomida davlatimiz rahbarining “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli yangi kitobi birinchi navbatda Tadbirkorlar harakati – O‘zbekiston Liberal – demokratik partiyasi elektorati o‘rtasida keng muhokama qilindi, shuningdek, saylovoldi uchrashuvlarda Taraqqiyot strategiyasi umumxalq muhokamasidan o‘tkazildi. Bu jarayonni “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” loyihasi muhokamasining birinchi bosqichi sifatida qayd etish mumkin.

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, degan nom bejiz tanlanmagan. Bu nom avvalo mazkur Taraqqiyot strategiyasi – 2017 yil fevralida tasdiqlangan va keyingi besh yil ichida hayotga izchil tatbiq etilgan Harakatlar strategiyasining yangi bosqichdagi mantiqiy davomi ekanini anglatadi. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot

strategiyasi”da “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili ilgari surilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni bilan Yangi O‘zbekistonning kelgusi 5 yilga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Bu hujjat O‘zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirishning 7 ta ustuvor yo‘nalishi doirasida 100 ta maqsadga erishishga qaratilgan va 2022-yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan 398 ta chora-tadbirni o‘z ichiga oladi. Xususan, Harakatlar strategiyasida 5 ta ustuvor yo‘nalish belgilab olingan bo‘lsa, taraqqiyot o‘zgarishlarining yangi tarixiy bosqichda davom ettirilishi ko‘zda tutilgan holda, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”ga 2 ta yangi ustuvor yo‘nalish qo‘shildi. Shunday qilib, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida yettita ustuvor yo‘nalish nazarda tutilgan. Ular quyidagilar:

Birinchisi– inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

Ikkinchisi–mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

Uchinchisi– milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash;

To‘rtinchisi – adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

Beshinchisi – ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

Oltinchisi – milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;

Yettinchisi– mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Taraqqiyot strategiyasining to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi – adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish, hisoblanib, ushbu yo‘nalishda bevosita yoshlar bilan ishlash, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, siyosiy, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, siyosiy jarayonlarga faol jalb qilish, iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish, yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish masalalarini yanada takomillashtirishga e’tibor qaratildi. Shuningdek, bu ustuvor yo‘nalishdagi 70-maqsad “Yoshlarga oid davlat siyoatini takomillashtirish” deb nomlanib, unga erishish uchun quyidagi vazifalar:

Birinchidan, yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha;

Ikkinchidan, yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o‘rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog‘lom turmush tarzini mustahkamlash bo‘yicha;

Uchichidan, yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish bo‘yicha;

To‘rtinchidan, Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishini ta’minlash, hududlarda inklyuziv ta’lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish bo‘yicha;

Beshinchidan, Yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha;

Oltinchidan, Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash bo‘yicha;

Yettinchidan, Yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish bo‘yicha;

Sakkizinchidan, Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish bo‘yicha;

To‘qqizinchidan, Iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish bo‘yicha;

O‘ninchidan, Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha;

O‘n birinchidan, Yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha;

O‘n ikkinchidan, Yosh oilalarni ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish bo‘yicha;

O‘n uchinchidan, Yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha vazifalar amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasining har bir bandida belgilab berilgan chora-tadbirlarda yoshlarimizning ertangi farovon turmush tarzi, mamlakatimiz kelajagi aks ettirilgan. Shuningdek, taraqqiyot strategiyasi mamlakatimizda yoshlar huquq-manfaatlarining yanada himoya qilinishi barobarida ertangi kunda mamlakatimiz yoshlarining yuqori marralarni zabt etishiga, ularning yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Akmal Saidov. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” inson qadrini ulug‘lagan xalqchil bosh dastur.
2. Bahromjon Ilhomjonov. Taraqqiyot strategiyasi: Yangi O‘zbekistonda
3. yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davdat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni.
6. O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi // https://review.uz/oz/post/ozbekistonda-yoshlar-tadbirkorligini-qollab-quvvatlash-va-rivojlantirishda-amalga-oshirilayotgan-islohotlar-samarasi.Saitov, Sirojiddin. "Transport korxonalarida buxgalteriya hisobini takomillashtirish." Journal of Contemporary World Studies 2.4 (2024): 41-47.
7. Saitov, S. "Raqamli O‘zbekiston–2030." amalda: muammo va istiqbollar//International Journal of scientific and Applied Research 1.3 (2024): 148-151.
8. Saitov, S. "Sattarova M. Korxonalarni boshqarishda innovatsiyalarning o‘rni." International scientific and practical conference. Vol. 1. 2024.
9. Saitov, Sirojiddin. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida buxgalteriya hisobi tizimini rivojlantirishning ustuvor yo ‘nalishlari." Science technology&Digital finance 2.4 (2024): 32-37.
10. Saitov, Sirojiddin, and Elyorjon Axrorov. "O‘zbekistonda iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish." Science technology&Digital finance 1.5 (2023): 158-164.
11. Saitov, Sirojiddin, and Oygul Karimqulova. "Raqamli iqtisodiyotning ijobiy va salbiy tomonlari, uning asosiy ko ‘rsatkichlari." International Journal of scientific and Applied Research 1.2 (2024): 139-145.
12. Saitov, Sirojiddin. "O‘zbekistonning butun jahon savdo tashkilotiga a’zo bo ‘lishining iqtisodiy ahamiyati." International Journal of scientific and Applied Research 1.2 (2024): 337-344.
13. Saitov, Sirojiddin. "Jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o‘rni va ahamiyati." Science technology&Digital finance 2.4 (2024): 23-31.
14. Saitov, Sirojiddin, and Madina Sattarova. "Korxonalarni boshqarishda innovatsiyalarning o ‘rni." International Journal of scientific and Applied Research 1.2 (2024): 209-214.
15. Saitov, Sirojiddin, and Nargiza Tolliboyeva. "O‘zbekistonda tadbirkorlik muhitini yaxshilashda infratuzilmaning ro‘lini oshirish." International Journal of scientific and Applied Research 1.2 (2024): 249-252.
16. Saitov, Sirojiddin, and Bolbek Jabborov. "O‘zbekiston bank tizimini rivojlantirishda" raqamli banklar" imkoniyatlaridan foydalanish istiqbollari."International Journal of scientific and Applied Research 1.2 (2024): 118-122.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024